

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligida
2019 yil 19 dekabrda 3205-son
bilan ro‘yxatga olingan
O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Boshqaruvining
2019 yil 28 sentyabrdagi
24/5-son qaroriga
ILOVA

**Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar
(mikroqarzlار) bo‘yicha qarz yukini hisoblash tartibi,
qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek
qarz yuki o‘shini cheklash to‘g‘risidagi
NIZOM**

Muqaddima

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Qarz oluvchining o‘rtacha oylik to‘lovlari miqdorini aniqlash

3-bob. Qarz oluvchining o‘rtacha oylik daromadlari miqdorini aniqlash

4-bob. Qarz yuki o‘shini cheklash me'yori

5-bob. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida"gi, "Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida"gi qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 iyuldagi PQ-4400-son "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq qarz oluvchi jismoniy shaxslarga kreditlar yoki mikroqarzlار ajratilayotganda qarz yukini hisoblash tartibini, qarz yukining ruxsat etilgan miqdorini, qarz yuki o‘shini cheklab turishni, shu jumladan kunlik eng yuqori foiz stavkalarini belgilaydi.

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qarz oluvchi - kredit tashkilotiga kredit yoki mikroqarz olish uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs;

qarz yuki ko'rsatkichi - qarz oluvchining kredit yoki mikroqarzlari bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari miqdorining uning o'rtacha oylik daromadi miqdoriga bo'lgan nisbati;

qarz beruvchi - bank, mikrocredit tashkiloti, lombard va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa kredit tashkiloti;

kredit (mikroqarz) shartnomasi bo'yicha to'lovlar - kreditning (mikroqarznig) to'liq qiymati, foizlar, shartnomani tuzish vaqtida ma'lum bo'lgan boshqa to'lovlar, shu jumladan uchinchi shaxs foydasiga to'lanadigan to'lovlar, agar bunday to'lovlar shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan bo'lsa;

o'rtacha oylik to'lovlar miqdori - qarz oluvchi tomonidan barcha qarz beruvchilar bilan tuzilgan kredit (mikroqarz) shartnomalari, shuningdek qarz oluvchi kafil va/yoki birgalikda qarz oluvchi sifatida ishtirok etadigan kredit (mikroqarz) shartnomalari bo'yicha to'lovlarning o'rtacha oylik qiymati;

o'rtacha oylik daromadlar miqdori - jismoniy shaxsning mehnatga haq to'lash tarzidagi, shuningdek pensiya va boshqa daromadlari;

birgalikda qarz oluvchi - qarz oluvchi bilan kredit (mikroqarz) va uning foizlari bo'yicha oylik to'lovlarda qatnashuvchi, shuningdek kredit (mikroqarz) bo'yicha solidar javob beruvchi jismoniy shaxslar.

2. Qarz yuki ko'rsatkichi har bir qarz oluvchiga banklar va mikrocredit tashkilotlari tomonidan mikroqarz yoki lombardlar tomonidan kredit (mikroqarz) ajratishda uning summasi va qarz oluvchining amaldagi kredit (mikroqarz) shartnomalari bo'yicha asosiy qarz qoldig'i yig'indisi bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshganda hisoblanadi.

3. Qarz beruvchi tomonidan kreditga (mikroqarzg) doir huquqlar sotib olinganda qarz yuki ko'rsatkichi hisoblanmasligi mumkin.

2-BOB. QARZ OLUVCHINING O'RTACHA OYLIK TO'LOVLARI MIQDORINI ANIQLASH

4. O'rtacha oylik to'lovlar miqdori hisob-kitobiga quyidagi to'lovlar kiritiladi:

qarz beruvchi tomonidan kredit (mikroqarz) ajratish to'g'risida ko'rib chiqilayotgan murojaat bo'yicha;

qarz beruvchi tomonidan kredit (mikroqarz) ajratish to'g'risida ko'rib chiqilayotgan murojaatda birgalikda qarz oluvchi nazarda tutilgan taqdirda, uning barcha kreditorlar bilan tuzilgan har bir kredit (mikroqarz) shartnomasi bo'yicha;

qarz yuki ko'rsatkichini hisoblash sanasida qarz oluvchi va barcha qarz beruvchilar o'rtasida tuzilgan hamda amalda bo'lgan kredit (mikroqarz) shartnomalari bo'yicha;

qarz oluvchi kafillik shartnomasiga muvofiq kafil sifatida ishtirok etgan kreditlar (mikroqarzarlar) bo'yicha, agar qarz yuki ko'rsatkichini hisoblash sanasida ular bo'yicha 30 kundan ortiq muddati o'tgan to'lovlari mavjud bo'lsa.

5. Qarz beruvchi o'rtacha oylik to'lovlarni kredit byurosi tomonidan taqdim etiladigan kredit hisobotidagi va qarz beruvchi boshqa rasmiy manbalardan olgan ma'lumotlaridan foydalangan holda hisoblab chiqadi. Bunda qarz beruvchi o'rtacha oylik to'lovlari miqdorini hisoblashda aktual (olingan sanasi 7 ish kunidan oshmagan) ma'lumotlardan foydalanishi lozim.

6. Qarz yuki ko'rsatkichini hisoblash va kredit (mikroqarz) berish sanasi o'rtasidagi vaqt oralig'i bir kalendar oydan oshmasligi kerak.

3-BOB. QARZ OLUVCHINING O'RTACHA OYLIK DAROMADLARI MIQDORINI ANIQLASH

7. Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari miqdori qarz oluvchi tomonidan oxirgi 12 oy ichida olgan daromadlari miqdorining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi.

Qarz beruvchi tomonidan ko'rib chiqilayotgan kredit (mikroqarz) ajratish haqidagi murojaatda birgalikda qarz oluvchi nazarda tutilgan bo'lsa, uning daromadlari ham o'rtacha oylik daromadi hisob-kitobiga kiritiladi.

8. Qarz beruvchi qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlashda qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan va/yoki kredit byurodan yoki boshqa rasmiy manbalardan mustaqil ravishda olingan, qarz oluvchining daromadlarini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlardan foydalanadi.

9. Qarz beruvchi qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlashda quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega:

ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlari;

pensiya miqdori to'g'risidagi ma'lumotlari;

fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlari;

foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan va shular kabi boshqa doimiy tarzdagi daromadlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar.

4-BOB. QARZ YUKI O'SISHINI CHEKLASH ME'YORI

10. Qarz beruvchi tomonidan kreditlar (mikroqarzarlar) ajratilayotganda jismoniy shaxsning qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi kerak.

11. Qarz beruvchi tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan barcha kredit (mikroqarz) shartnomalari bo'yicha kunlik eng yuqori foiz stavka 0,3 foizdan oshmasligi biroq foizlar, vositachilik haqi, penya va boshqa javobgarlik choralari miqdori yillik qarz summasining yarmidan ko'p bo'lmasligi lozim.

5-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

12. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.
13. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz),
2019 yil 19 dekabr'

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami",
2019 yil 23 dekabr', 51-son, 915-modda